



ARAB MATBUOTIDA TASHRIFLAR, UCHRASHUVLAR VA MUZOKARALAR HAQIDAGI XABARLARNING TEMATIK TUZILISHI

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Oriental universiteti o'qituvchisi

Shamsuddin99@icloud.com

+998950271827

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18503072>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 03- fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 06- fevral 2026 yil

KEY WORDS

arab matbuoti, diplomatik diskurs, rasmiy tashriflar, ko'p tomonlama uchrashuvlar, tinchlik muzokaralari, xalqaro vositachilik, iqtisodiy hamkorlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada arab davlatlari matbuotida tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralar haqidagi xabarlarning tematik, leksik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy davlat tashriflari, ko'p tomonlama uchrashuvlar, xalqaro vositachilik va tinchlik muzokaralari hamda iqtisodiy va savdo muzokaralari kabi asosiy tematik guruhlar ajratib ko'rsatiladi. Arab ommaviy axborot vositalarida mazkur voqealar qanday diskursiv strategiyalar orqali yoritilishi, diplomatik tilning o'rne, rasmiylik va emotsionallik o'rtasidagi muvozanat masalalari ochib beriladi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni – Eron munosabatlari, Islom hamkorlik tashkiloti doirasidagi tashriflar va iqtisodiy hamkorlikka oid misollar asosida arab matbuotining geosiyosiy jarayonlarni aks ettirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari arab matbuotida diplomatik xabarlar nafaqat axborot berish, balki mintaqaviy va global siyosiy jarayonlarni talqin qilish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi

Zamonaviy arab ommaviy axborot vositalari xalqaro siyosiy jarayonlarni yoritishda muhim axborot va tahliliy platforma vazifasini bajaradi. Ayniqsa, rasmiy tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralar haqidagi xabarlar arab matbuotida keng yoritilib, mintaqaviy va global siyosiy munosabatlarning aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday materiallar nafaqat voqea-hodisalar haqida ma'lumot beradi, balki diplomatik til, rasmiy diskurs va siyosiy pozitsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada arab davlatlari matbuotida tashriflar va muzokaralarning tematik guruhlari hamda ularning leksik-stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Arab davlatlari matbuotida tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralar haqidagi xabarlar odatda quyidagi tematik guruhlarga bo'linadi:

1. Rasmiy davlat tashriflari. Arab davlatlari matbuotida rasmiy tashriflar – ya'ni davlat rahbarlari yoki yuqori martabali amaldorlarning boshqa davlatlarga qilgan tashriflari – axborot diskursida muhim janrlardan biri hisoblanadi. Bunday tashriflar odatda davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash, strategik sheriklikni kengaytirish, yangi iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik sohalaridagi kelishuvlarni imzolash bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, ular ko'p hollarda diplomatik til va rasmiy uslubning aniq ifodasidir.

Arab matbuoti bu turdagi tashriflarni odatda yuqori darajadagi jiddiylik bilan yoritadi. Xabarlar ko'pincha quyidagi struktura asosida quriladi:

1. Tashrifning sababi va maqsadi: Bu bo'limda davlat rahbarining safar qilgan davlati, tashrifning sababi (masalan, strategik muzokaralar, iqtisodiy forumda ishtirok, mudofaa sohasida kelishuv) va umuman maqsadlar yoritiladi.

2. Uchrashuv tafsilotlari: Prezident, shayx yoki bosh vazir bilan uchrashuv tafsilotlari, kun tartibi, qanday masalalar muhokama qilingani haqida ma'lumotlar beriladi.

3. Imzolangan hujjatlar: Tashrif doirasida erishilgan kelishuvlar, qo'shma bayonotlar, memorandumlar va bitimlar tilga olinadi.

4. Natija va istiqbollari: Matn oxirida ikki tomonlama munosabatlar istiqboli, rasmiylar bayonotlari va kutilayotgan ta'sirlar haqida fikr yuritiladi.

Bunday xabarlarda rasmiy, diplomatik va odatda yuqori darajadagi rasmiy til ishlatiladi. Uslubda quyidagi leksik birliklar va iboralar ko'p uchraydi: تعزيز العلاقات الثنائية (ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash), التعاون الاستراتيجي (strategik hamkorlik), توقيع اتفاقيات (kelishuvlarni imzolash), بحث القضايا الإقليمية والدولية (mintaqaviy va xalqaro masalalarni muhokama qilish). Bular orqali matbuot nafaqat xabar beradi, balki tashrifning muhimligini, uning xalqaro maydondagi o'rnini ta'kidlaydi.

Bu masalani kontekstual bir misol orqali ko'rib chiqamiz: Saudiya Arabistoni – Eron kelishuvi.

Saudiya Arabistoni va Eron o'rtasida diplomatik aloqalarni tiklashga oid xabarlar arab matbuotida keng yoritilgan. Ayniqsa, bu jarayonda Xitoy vositachilik qilgani alohida urg'u bilan berilgan:

“تم بوساطة الصين” (“Xitoy vositachiligida amalga oshirildi”) iborasi bu xabarlarda markaziy o'rinni egallaydi. Bu yerda nafaqat ikki tomonlama aloqalarni tiklash, balki geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi muvozanatni ifodalovchi qatlamlar mavjud. Arab matbuoti bu holatni “تحول استراتيجي” – “في العلاقات الإقليمية” – mintaqaviy aloqalardagi strategik burilish deb baholaydi. Matbuotda tashrifning natijasi sifatida elchixonalarining qayta ochilishi, xavfsizlik masalalarida hamkorlik, shia va sunniy davlatlar o'rtasida yangi sahifa ochilishi haqida yoziladi.

Arab davlatlari matbuotida rasmiy tashriflar nafaqat yangilik sifatida, balki xalqaro munosabatlarning bir ko'zgusi sifatida beriladi. Ayniqsa, Al Arabiya, Al Jazeera, Al-Ahram, Asharq Al-Awsat kabi manbalar bunday tashriflarni xalqaro tendensiyalar bilan bog'lab tahlil qiladi. Masalan:

- Tashriflar orqali qaysi davlatning xalqaro sahnadagi ta'siri oshayotganini aniqlash mumkin.

- AQSh, Rossiya, Xitoy kabi kuchlarning mintaqadagi roli rasmiy tashriflar orqali o'z aksini topadi.

- Bu esa Arab matbuotida tashriflarni global o'zgarishlar kontekstida yoritilishiga olib keladi.

Stilistik jihatdan yana bir muhim jihat – qo'shma bayonotlar. Rasmiy tashriflardan so'ng e'lon qilinadigan qo'shma bayonotlar (البيان المشترك) arab matbuotida ayniqsa keng yoritiladi. Ular rasmiy pozitsiyani ifodalaydi va diplomatik muvozanatni aks ettiradi. Matbuot bu bayonotlarning rasmiy matnlarini aynan keltirishga harakat qiladi, jumladan:

- التأكيد على أهمية الحوار والتفاهم - Muloqot va o'zaro anglashuv ahamiyatini ta'kidlash;
- الالتزام بمبادئ حسن الجوار - Qo'shnihilikning yaxshi tamoyillariga rioya qilish;
- التعاون المشترك في مختلف المجالات - Turli sohalarida o'zaro hamkorlik qilish. Bular orqali davlatlararo aloqalarning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari belgilab beriladi.

Demak, rasmiy davlat tashriflari haqidagi xabarlar arab matbuotida rasmiylik, diplomatik ehtiyotkorlik va strategik maqsadlarga xizmat qiladigan uslubda yoritiladi. Ular matbuotda oddiy axborot emas, balki geosiyosiy jarayonlarning aks-sadosi sifatida namoyon bo'ladi. Uslub jihatdan bunday xabarlar odatda mustahkam tuzilmaga ega, rasmiy terminologiyadan foydalaniladi va davlatlararo munosabatlardagi muvozanatni yoritishga qaratiladi.

2. Ko'p tomonlama uchrashuvlar. Ko'p tomonlama uchrashuvlar – bu bir nechta davlatlar vakillarining mintaqaviy yoki global darajadagi masalalarni muhokama qilish uchun o'tkazadigan uchrashuvlaridir. Arab davlatlari kontekstida bu kabi yig'ilishlar ko'pincha Arab Ligasi, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi, yoki xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi forumlar doirasida bo'lib o'tadi. Arab matbuotida bunday uchrashuvlar keng yoritiladi, chunki ular bir vaqtning o'zida siyosiy, diplomatik va ko'p tomonlama aloqalarning ko'zgidir.

Arab va musulmon mamlakatlari tomonidan o'tkaziladigan ko'p tomonlama yig'ilishlar quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash: Isroil-Falastin mojarosi, Suriya inqirozi, Yaman urushi kabi masalalarda umumiy pozitsiyani shakllantirish.
2. Diplomatik birdamlikni namoyish qilish: Tashqi siyosiy bosimlarga qarshi birlashish, xalqaro tashkilotlar orqali ovoz birligini ko'rsatish.
3. Iqtisodiy va gumanitar hamkorlik: Xalqaro yordam va moliyaviy dasturlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.

Arab matbuotida, ayniqsa gazetalarda ko'p tomonlama uchrashuvlar odatda tantanali, biroq nisbatan bahsli tusdagi tahlil bilan beriladi. Bu turdagi xabarlar quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Yig'ilishning sababi va ishtirokchilari: har bir davlatdan qatnashgan vakillar, ularning siyosiy vazifalari va yig'ilish mavzusi.
2. Muhokama qilingan asosiy masalalar: mintaqaviy nizolar, xalqaro bosimlar, xavfsizlik, migratsiya, iqtisodiy barqarorlik.
3. Bayonotlar va qarorlar: yakuniy deklaratsiyalar, qo'shma bayonotlar, diplomatik bayonlar.
4. Tanqidiy pozitsiyalar va noroziliklar: ayrim hollarda davlatlar o'rtasida pozitsiyalar farqlanishi ham ochiq beriladi.

Bu kabi xabarlarda matn ko'proq tahliliy tus oladi. Uslubda ham rasmiylik saqlanadi, biroq unda siyosiy baholash, norozilik, birdamlik yoki tanqidiy pozitsiyalar ham ifodalanadi. Ko'p ishlatiladigan iboralarga quyidagilar kiradi: اجتماع طارئ (favqulodda yig'ilish), التنسيق المشترك (qo'shma muvofiqlashtirish), دعم القضية الفلسطينية (Falastin masalasini qo'llab-quvvatlash), رفض

التدخلات الخارجية (tashqi aralashuvlarni rad etish), موقف موحد (yakdil pozitsiya). Bu terminlar orqali matnning emotsional va siyosiy konnotatsiyasi kuchaytiriladi.

Bu masalani kontekstual bir misol orqali ko'rib chiqamiz: IHT (Islom hamkorlik tashkiloti) vakillarining Rossiyaga tashrifi.

Arab va Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar vazirlarining Rossiyaga tashrifi 2023-yilda G'azo sektoridagi mojaroga munosabat sifatida muhim voqea bo'ldi. Arab matbuoti bu tashrifni quyidagicha yoritdi: "جهود دبلوماسية لوقف العدوان" – "tahdidni to'xtatish uchun diplomatik harakatlar"; "المطالبة بوقف إطلاق النار" – "o't ochishni to'xtatishga chaqiriq". Bu tashrif davomida ko'plab davlatlar birgalikda Falastin xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatish zarurligini ta'kidladilar. Matbuotda bu kabi iboralar ishlatilganini ko'rishimiz mumkin: "دعوة المجتمع الدولي" – "xalqaro hamjamiyatni o'z mas'uliyatini zimmasiga olishga chaqirish"; "إدانة" – "لتحمل مسؤولياته" – "القصف العشوائي على المدنيين" – "tinch aholi ustiga uyushtirilgan tartibsiz bombardimolni qoralash". Shu orqali matbuot nafaqat xabar beradi, balki jamoatchilikni siyosiy va axloqiy jihatdan safarbar etishga xizmat qiladi.

Ko'p tomonlama uchrashuvlar haqidagi xabarlar rasmiy tusda yozilgan bo'lsa-da, ular orasida emotsional uslubga yo'l qo'yiladi. Ayniqsa, insonparvarlik masalalari yoki Falastin kabi butun millatga oid mavzular yoritilganda arab matbuotida quyidagi stilistik elementlar kuzatiladi. Masalan: "دماء الأبرياء" (begunoh qonlar), "معاونة الأطفال والنساء" (bolalar va ayollarning azob-uqubatlari) kabi iboralar bilan qalblarga murojaat qilinadi. Ba'zan ayrim davlatlarning betarafliigi yoki sust harakatlari ochiq tanqid qilinadi.

Yakuniy bayonotlar arab matbuotida katta o'rin egallaydi. Matbuot odatda bu bayonotlarni to'liq yoki qisqa tahlil bilan e'lon qiladi. Xabarlarda quyidagi iboralarni ko'p uchramiz: "أكد القادة على أهمية توحيد الجهود" – "Liderlar sa'y-harakatlarni birlashtirishning ahamiyatini ta'kidladi"; "أدان الاجتماع الأعمال العدوانية" – "Majlis agressiv harakatlarni qoraladi"; "دعا" – "البيان إلى ضرورة إرسال مساعدات عاجلة" – "Bayonot shoshilinch yordam yuborish zarurligini chaqirdi". Bu bayonotlar matbuotda mintaqaviy birdamlik, diplomatik bosim va xalqaro qonunchilikni targ'ib qilish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Arab matbuoti ko'p tomonlama uchrashuvlarni ko'pincha geosiyosiy kuchlar kontekstida tahlil qiladi. Bu ayniqsa quyidagilarda namoyon bo'ladi: AQSh, Rossiya, Xitoy o'rtasidagi diplomatik harakatlar – kim kimni qo'llab-quvvatlayapti, qanday pozitsiyani egalladi; arab davlatlari o'rtasidagi birlik darajasi – ba'zan ichki bo'linishlar ochiq yoritiladi; islom dunyosining global sahnadagi o'rni – bu tez-tez "إعادة ترتيب النظام العالمي" (dunyo tartibini qayta o'rnatish) kabi iboralar bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, ko'p tomonlama uchrashuvlar haqida berilgan xabarlar arab matbuotida diplomatik nutq, siyosiy tahlil va emotsional motivatsiya o'rtasida muvozanat saqlaydi. Bu xabarlarda bir tomondan rasmiylik va xalqaro diplomatik til hukmron bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayniqsa Falastin masalasiga doir xabarlarda, qat'iylik va birdamlik ruhiyati ustuvorlik qiladi. Matbuot bunday uchrashuvlarni faqat axborot emas, balki siyosiy pozitsiyani bildiruvchi va mintaqaviy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida ko'radi.

3. Xalqaro vositachilik va tinchlik muzokaralari. Xalqaro vositachilik va tinchlik muzokaralari bugungi kunda xalqaro siyosiy aloqalarning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Arab davlatlari ishtirok etayotgan yoki ularni bevosita ta'sir qilayotgan mojarolarda vositachilik tashabbuslari matbuotda katta e'tibor bilan yoritiladi. Bunday

xabarlar odatda yuqori darajadagi diplomatik til, rasmiylik, va tinchlikni targ'ib qiluvchi emotsional motivatsiyalar bilan boyitilgan bo'ladi.

Arab gazetalarida vositachilik va tinchlik muzokaralariga oid xabarlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Mintaqaviy nizolarni hal qilish: Suriya, Liviya, Yaman, Sudan kabi davlatlardagi fuqarolar urushi yoki siyosiy inqirozlar.
2. Diplomatik munosabatlarning tiklanishi: Saudiya Arabistoni va Eron, Qatar va boshqa Fors ko'rfazi davlatlari o'rtasidagi muzokaralar.
3. Xalqaro kuchlar vositachiligidagi kelishuvlar: Xitoy, Rossiya, yoki AQShning ishtiroki bilan olib borilayotgan tinchlik tashabbuslari.

Bu turdagi xabarlar odatda quyidagi elementlarga ega: muzokara bosqichlari (boshlanish, oraliq natijalar, yakuniy kelishuv); vositachi davlatlarning roli va pozitsiyasi; erishilgan kelishuvning shartlari va diplomatik ahamiyati.

Masalan, Arab matbuotida Saudiya Arabistoni va Eron o'rtasida 2023-yilda erishilgan kelishuvga alohida urg'u berilgan. Bu kelishuvning Xitoy vositachiligida bo'lgani arab jurnalistikasida geosiyosiy burilish sifatida taqdim etildi: "بوساطة صينية ناجحة" – "muvaffaqiyatli Xitoy vositachiligi"; "استئناف العلاقات الدبلوماسية" – "diplomatik munosabatlarning qayta tiklanishi"; "خطوة تاريخية نحو الاستقرار الإقليمي" – "mintaqaviy barqarorlik sari tarixiy qadam". Arab matbuotida bu xabarlar diplomatik yutuq sifatida baholanadi. Ayniqsa, Saudiya va Eron o'rtasidagi uzoq yillik qarama-qarshilik fonida bu kelishuv "نقطة تحول في العلاقات الإقليمية" deb ta'riflanadi.

Tinchlik muzokaralari haqidagi matnlarda ishlatiladigan leksik birliklar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi: التهدئة (tinchlantirish), المصالحة (yarashuv), الحوار البناء (konstruktiv muloqot), وقف إطلاق النار (o't ochishni to'xtatish), الحل السلمي (tinch yo'l bilan hal qilish). Bu iboralar matnning asosiy mazmuniga – ya'ni tinchlikni tiklash, muloqot o'rnatish, va diplomatik harakatlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tinchlik muzokaralarining eng muhim jihati yakuniy bayonotlar sanaladi. Arab matbuotida bu bayonotlar odatda to'liq yoki muhim qismlari bilan keltiriladi. Misollar:

- "يلتزم الطرفان باحترام سيادة الدول وعدم التدخل في الشؤون الداخلية" – Ikki tomon davlatlarning suvereniteti va ichki ishlarga aralashmaslikka sodiqligini bildiradi.

- "العمل على تعزيز الأمن والاستقرار في المنطقة" – Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni kuchaytirish yo'lida ishlashga kelishildi. Bu kabi iboralar orqali matbuot tinchlik tashabbusining rasmiy va siyosiy og'irligini ko'rsatishga intiladi.

Arab matbuotida bunday xabarlar odatda quyidagi stilistik vositalar bilan boyitiladi. Formal diplomatik tilda yoziladi: gaplar uzoq, murakkab tuzilmali, terminologik jihatdan boy. Metaforik iboralar kam ishlatiladi, biroq "tarixiy qadam", "burilish nuqtasi" kabi iboralar paydo bo'lishi mumkin. Emotsional ohang faqat gumanitar yo'nalishli kelishuvlarda kuchayadi.

Arab matbuoti uchinchi tomonlar – ya'ni vositachilar – haqida alohida tahliliy yondashuv bilan yozadi. Xususan, Xitoy vositachiligini "yangi global kuch markazi" deb ko'rsatadi. Rossiyaning roli Suriya va Liviya bo'yicha ko'proq harbiy-diplomatik kuch sifatida talqin qilinadi. Turkiya esa ikki tomonlama diplomatik tashabbuslari bilan tilga olinadi. Bu orqali arab matbuoti mintaqadagi strategik o'zgarishlarni o'quvchiga aniqroq ko'rsatadi.

Shunday qilib, xalqaro vositachilik va tinchlik muzokaralari arab matbuotida eng nozik, rasmiy, va diplomatik jihatdan qamrovli tarzda yoritiladigan mavzulardan biridir. Bunday xabarlarda rasmiy diplomatik nutq bilan birga tinchlik, barqarorlik va birdamlik g'oyalari

targ'ib qilinadi. Ular nafaqat axborot, balki xalqaro maydondagi o'yinchilar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini ko'rsatuvchi vosita hamdir. Arab matbuoti bu mavzuda ehtiyotkor, rasmiy, va strategik yondashuvni afzal ko'radi.

4. Iqtisodiy va savdo muzokaralari. Arab davlatlari, ayniqsa Fors ko'rfazi mamlakatlari, so'nggi yillarda iqtisodiy diversifikatsiyaga katta e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or texnologiyalar asosida hamkorlikni kuchaytirish muhim o'rin tutadi. Bu borada turli mamlakatlar bilan o'tkazilayotgan muzokaralar va imzolangan shartnomalar arab matbuotida keng yoritiladi. Ushbu xabarlar rasmiy uslubda yoziladi, biroq ularning tilida iqtisodiy taraqqiyot, innovatsiya va strategik manfaatlarni targ'ib qiluvchi elementlar kuchli aks etadi.

Arab matbuotida iqtisodiy va savdo muzokaralari quyidagi asosiy mavzular doirasida yoritiladi:

1. Investitsiyalarni jalb qilish: xorijiy kapitalni jalb etish, erkin iqtisodiy zonalar, startaplar va texnologik infratuzilmalarni rivojlantirish.

2. Energetika va tabiiy resurslar: neft, gaz, qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi hamkorlik.

3. Savdo shartnomalari va bojxona preferensiyalari: ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama savdo kelishuvlari.

4. Yangi texnologiyalar: sun'iy intellekt, yarimo'tkazgichlar, raqamli iqtisodiyot kabi sohalarda hamkorlik.

Arab matbuotida iqtisodiy tashriflar va muzokaralar bilan bog'liq xabarlar rasmiy, optimistik va iqtisodiy jargon bilan boyitilgan bo'ladi. Quyidagi iboralar ko'p uchraydi: اتفاقيات - yirik investitsiya kelishuvlari; تعزيز الشراكة الاقتصادية - iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash; فتح آفاق جديدة للتعاون - hamkorlikning yangi ufqlarini ochish; نقل التكنولوجيا وتبادل الخبرات - texnologiya transferi va tajriba almashinuvi. Ushbu iboralar orqali matnning asosiy maqsadi - iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion rivojlanish va xalqaro ishonchni kuchaytirish - namoyon bo'ladi.

Masalan, Birlashgan Arab Amirliklarining AQSh bilan sun'iy intellekt va yarimo'tkazgichlar sohasida hamkorlik qilish rejaları arab matbuotida "kelajak iqtisodiyoti" konsepsiyasi bilan bog'liq tarzda yoritiladi. Bunda quyidagi strukturadagi iboralar qo'llaniladi: التركيز على - milliardlab dollarlik investitsiya rejasi; خطط استثمارية بقيمة مليارات الدولارات - innovatsiya va sun'iy intellektga e'tibor; شراكة استراتيجية لدعم الاقتصاد الرقمي - raqamli iqtisodni qo'llab-quvvatlash uchun strategik hamkorlik. Bu kabi ifodalar matbuotda faqat iqtisodiy yutuqni emas, balki mamlakatning global texnologik xaritada pozitsiyasini ham mustahkamlashga qaratilgan diskursning bir qismidir.

Iqtisodiy va savdo muzokaralari haqidagi xabarlarda ishlatiladigan asosiy leksik birliklar ham talaygina. Jumladan: الإقليمي (ikki tomonlama / mintaqaviy hamkorlik), التعاون الثنائي (iqtisodiy rivojlanish), التنمية الاقتصادية (savdo ayirboshlov), التبادل التجاري (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar), الاستثمارات الأجنبية المباشرة (qo'shma loyihalar), المشاريع المشتركة. Bu kabi terminlar orqali matbuotda iqtisodiy ijobiylik, barqarorlik, ishonchli hamkorlik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Arab matbuotida iqtisodiy muzokaralar bo'yicha quyidagi asosiy diskurs strategiyalari qo'llaniladi:

1. Ijobiy imidj yaratish: mamlakat yetakchilari va iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyati haqida yoritish.

2. Hamkor davlatni strategik sherik sifatida ko'rsatish: BAA – AQSh, Saudiya – Xitoy kabi misollarda sheriklik strategik tusda beriladi.

3. Kelajak yo'nalishlarini chizish: "التنمية المستدامة", "رؤية 2030" kabi iboralar bilan kelajakdagi rejalar yoritiladi.

4. Global texnologik muhitda raqobatbardoshlik: "التحول الرقمي", "الابتكار العالمي" kabi iboralar orqali mamlakatning global maydonda ishtiroki ko'rsatiladi.

Arab matbuotida iqtisodiy uchrashuvlar nafaqat ikki tomonlama tashriflar, balki xalqaro forumlar orqali ham yoritiladi. Masalan, Davos iqtisodiy forumi, "InnoVest" texnologik investitsiya sammiti, GCC iqtisodiy hamkorlik sammiti. Bu kabi forumlarda ishtirok etganlik, imzolangan shartnomalar va ilgari surilgan tashabbuslar alohida tahlil qilinadi. Matbuotda ularning natijalari odatda quyidagi tarzda yoritiladi: "توقيع عدد من مذكرات التفاهم" – bir qator o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi; "إطلاق مبادرات مشتركة لتعزيز الابتكار" – innovatsiyani rag'batlantirish uchun qo'shma tashabbuslar ishga tushirildi.

Bunday xabarlarda emotsionallik unchalik kuchli bo'lmasa-da, orzu, ilhom va taraqqiyot ruhiyati bilan boyitilgan: صياغة مستقبل الاقتصاد – iqtisodiyot kelajagini shakllantirish; تحقيق قفزات نوعية – sifatli sakrashlarga erishish; بناء اقتصاد معرفي مستدام – barqaror bilimga asoslangan iqtisodiyot qurish. Bu iboralar orqali matbuot faqat mavjud real voqealarni emas, balki kelajakdagi imkoniyat va istiqbollarni ham chizadi.

Shu tarzda, iqtisodiy va savdo muzokaralari arab ommaviy axborot vositalarida rasmiy, barqarorlikni targ'ib qiluvchi va umid uyg'otuvchi ohangda yoritiladi. Bu xabarlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish, balki xalqaro sahnadagi ijobiy imidjni mustahkamlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Leksik va stilistik jihatdan ular odatda texnik, rasmiy, lekin optimistik ruh bilan yoziladi. Arab davlatlari bu yo'nalishda o'zlarini zamonaviy, innovatsion va global iqtisodiyotga integratsiyalashayotgan davlatlar sifatida ko'rsatishga harakat qilishadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, arab matbuotida tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralar haqidagi xabarlar qat'iy rasmiylik, diplomatik ehtiyotkorlik va strategik yondashuv asosida yoritiladi. Rasmiy davlat tashriflari ko'proq diplomatik protokol va davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, ko'p tomonlama uchrashuvlar siyosiy birdamlik va mintaqaviy muammolarni hal etish vositasi sifatida talqin etiladi. Xalqaro vositachilik va tinchlik muzokaralari esa arab matbuotida geosiyosiy burilishlar va barqarorlikka intilish ramzi sifatida beriladi. Iqtisodiy va savdo muzokaralari haqidagi xabarlar esa ijobiy imidj yaratish va kelajak rivojini tasvirlashga yo'naltirilgan. Umuman olganda, arab matbuotida diplomatik voqealar oddiy axborot emas, balki siyosiy diskurs va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalil Sobot, Jamol Abdulazim. Vasail al-ittisol: nash'atuha va tatovvuruha. Maktaba al-Anglu al-Misriyya, 9-nashr. Qohira – 2001, 246 b.
2. Sobir Horis. Idyulujiya as-sohafa al-arobiyya. Maktaba al-Anglu al-Misriyya. Qohira. – 2001, 128 b.

3. Avotif Abdurrahmon. Dirosat fiy as-sohafa al-arobiyya al-muasiro. Dar al-Farobiy. Livan, Bayrut – 1989, 472 b.
4. Professor Farah. Asalib at-tag'tiya as-suhufiyya li az-ziyarat ar-rosmiyya fiy as-sohafa al-arobiyya. Majalla al-buhus al-i'lamiyya ilmiy jurnali. 2020 – 45-son, 112-130 b.
5. Teshaboyeva D. Ommaviy axborot vositalari tilning nutq madaniyati aspektida tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref.. – Toshkent, 2012. – 54 b.
6. Mebarki Amel. Stylistic Analysis Of The Arabic Advertising Discourse: The Case Of 'ennahar' Newspaper In Algeria. University of Eloued – 2020 – 308-325 p.
7. Zainur Rijal Abdul Razak. Lexical Variation in Arabic Newspaper Discourse: A Corpus-Based Study of Seven Newspapers. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, vol. 8, no. 12, 2018, pp. 691–705.
8. Жуковская Е.А. Структурно-семантические и функционально-стилистические характеристики текста в современных арабском литературном и русском публицистическом стилях: дис. канд. филол. наук. — Москва, 2008. — 180 с.
9. Ar-Riyod gazetasi online portali, 11.01.2024 sanadagi xabari. Havola: https://www.alriyadh.com/1180595?utm_sour.
10. Al-Xalij gazetasi online portali, 18.09.2024 sanadagi xabari. Havola: <https://www.alkhaleej.ae/2024-09>.

INNOVATIVE
ACADEMY